

**OILADA TARBIYAVIY YONDASHUVLARNING BOLA PSIXIKASIGA
SALBIY TA'SIRLARI**

*Ernazarova Vazira Valijon qizi
Chirchiq davlat pedagogika universiteti
Pedagogika va psixalogiya yo'nalishi
1-bosqich magistranti*

Anotatsiya: Ushbu maqola oilada tarbiyaviy yondashuvlarning bola shaxsining rivojlanishiga ta'sir etuvchi salbiy omillar hamda tarbiyaning shaxs kamolotiga ta'siri haqida bo'lib, bugungi kundagi asosiy e'tiborimizni qaratayotgan oila tarbiyasidagi obyektiv va subyektiv omillar haqida bahs yuritadi.

Kalit so'zlar: Tarbiya, giperprotektsiya, o'ta kuchli axloqiy ma'suliyat, oilaviy diskriminatsiya, ziddiyatli tarbiya

Аннотация: В данной статье речь идет о негативных факторах, влияющих на развитие личности ребенка и о влиянии воспитания на развитие личности семьи, рассматриваются объективные и субъективные факторы семейного воспитания, которым уделяется основное внимание.

Ключевые слова: Воспитание, гиперпротекция, сильная моральная ответственность, семейная дискриминация, конфликтное воспитание.

Annotation: in this article, the factors affecting the development of the child's personality, and the objective and subjective physical education in the family, which are our main focus today, are discussed in this article.

Key words: Education, hyperprotection, strong moral responsibility, special discrimination, conflict education

Oila tarbiyasi — oilada farzandlarning ota-onasi yoki ularni o'rnini bosuvchi shaxslar tomonidan amalga oshiriladigan, farzandlar kamolida muhim ahamiyat kasb etadigan jarayon hisoblanadi. Yosh avlodning har tomonlama kamolga erishishida oila tarbiyasi muhim o'rinni tutadi. Oilaning moddiy ta'minoti, farovonligi, oila budgetining mavjud holati, undan oqilona foydalanish borasidagi tajriba, sog'lom ruhiy muhitning barqarorligi va hokazolar obyektiv omillar sirasiga kirsa, oiladagi shaxslararo do'stona munosabatlar, oila a'zolarining fiziologik, psixologik, ma'naviy jihatdan komillikka yetganligi, ularning qiziqishi va ehtiyojlari o'rtasidagi mutanosiblik, oilaviy turmushni tartibga solish borasidagi o'zaro moddiy ko'mak, hamkorlik, birlik tamoyillariga tayanish kabilar subyektiv omillar sirasiga kiradi. Hozirgi shiddat bilan taraqqiy etayotgan mamlakatimizning qay darajada yuksalishi, o'sib kelayotgan yosh avlodning ta'lim tarbiyasiga bevosita bog'liq sanaladi. Shaxsning kamolga yetishida nasl-irsiyat, ijtimoiy muhit, ta'lim-tarbiya asosiy ro'lni egallaydi.

Oila tarbiyasida doimiy tarbiyaviy ta'sirchan kuch — oilada ruhiy xotirjamlik, samimiyl munosabat zanjiri, ota-onal obro'sining yuqori bo'lishi, bolalarga talab qo'yishda oila kattalari o'rtasidagi birlikning saqlanishi, bola shaxsini mehnatga tarbiyalashga alohida e'tibor berish, bolani sevish va izzatini joyiga qo'yish, oilada qat'iy rejim va kun tartibini o'rnatish, bolaning yosh va individual xususiyatlarini hisobga olish, boladagi o'zgarishlarni kuzatib borish, undagi mustaqillikka intilish va tashabbuskorlik sifatlarini qo'llab-quvvatlash va hokazolar. Giperproteksiya - ota-onal tomonidan bola shaxsining barcha xohish va ehtiyojlarini ko'r-ko'rona, tanqid va mulohazasiz qondirishga intilish; bolani har qanday qiyinchiliklar va to'siqlardan himoya qilish, uning barcha istaklarini joyida bajo keltirish, erkalatish, oddiy yutuqlaridan quvonish, xatolarini e'tiborga olmaslik va to'g'irlamaslikka qaratilgan harakatlar yig'indisidir. Farzandi uchun "barchasini muhayyo qiladiganlar" odatda o'zlar bilmagan holda ularga yomonlik qilayotganliklarini sezmaydilar, natijada bola kelajakda barcha turdag'i mehnat faoliyatini rad etishga intilish, ko'pchilikning ichida o'zgalar fikrini eshitnaslik va o'zini ustun qo'yish, hayotning past-balandliklarida o'zini nochor his etadigan, tantiq, erka bo'lib o'sadi. Ayniqsa, bola o'smirlik yoshiga yetganda, erka, tantiq bo'lgani uchun do'stlari va tengqurlari davrasida ham hamma xohishlari qondirilishini istaydigan, liderlikka intiluvchanligini namoyon etgisi keladigan, lekin psixologik jihatdan, aslida unda bunday sifatlar mavjud bo'lmaydi. Gap shundaki, bunday holatlarda ota-onal surriyodi timsolida ilgari o'z hayot tajribasida erisholmagan armonlarini ro'yobga chiqargisi keladi, ularning tarbiya uslublari aynan shunga qaratilgan bo'ladi, lekin bola ko'p jihatdan nochor ekanligini keyinchalik ijtimoiy muhitning turli vaziyatlariga tushganida his eta boshlaydi. G'amho'rlikdan tub ma'noda farq qiladigan giperproteksiya - bunda erkalatishdan ko'ra oiladagi katta shaxslar tomonidan bola shaxsining har bir yurgan qadami va xatti-harakatini nazoratga olish orqali unga e'tibor berish nazarda tutiladi. Shuning uchun bu tarbiya uslubida turli xil ta'qiqlar va to'siqlar ota-onal tomonidan takror aytiladigan „mumkin emas” kabi iboralarning bisyorligi bilan namoyon bo'ladi. Bunday sharoitda voyaga yetgan bola odatda shaxsiy fikr va dunyo qarashsiz, mustaqil qarorlar chiqarishda doimo kattalar yordamiga muhtoj bo'ladi va xarakter jihatdan salga jahli chiqadigan va doimiy norozi holdagi kayfiyatning hamrohligi, chunki u doimiy nazoratga, o'zgalarning qarorlari asosida harakat qilishga odatlanadi: onasisiz dars tayyorlay olmaydigan, otasisiz ko'chaga chiqmaydigan, barcha ishlarida kattalarning doimiy aralashuviga muhtoj bo'ladi.

O'ta kuchli axloqiy mas'uliyat - bunda ota-onal tomonidan bolaga nisbatan talablar darajasi yuqori bo'ladi, lekin uning asl xohish-istiklari, ehtiyojlarini unchalik e'tiborga olinmaydi. Ota-onal bolasining kelajagini puxta qilishni o'ylab, uning yurish-turishi uchun o'zlarini mas'ul deb his qilgan holda, shaxsiy tasavvuridagi insonni yaratishga,

shaxsni shakllantirishga urinadilar, ba'zan nazorat ostida bolaning yoshi, aqliy yoki jismoniy imkoniyatlariga zid talablar, topshiriqlar ham berilaveradi. Masalan, "sen to'ng'ich farzandsan, ukalaringga sen qarashing kerak, bu ishlarni mustaqil qilishing kerak ", kabi bir qator aslida ota-onaning vazifasiga kiruvchi ma'suliyatni bola shaxsiga yuklashdir.

Oilaviy diskriminatsiya- farzand shaxsini tarbiyalashda unga doimiy ravishdagi namuna sifatidagi shaxslarni qayta-qayta ta'kidlab ko'rsatish orqali bola ongini aka-ukasi, opa-singlisi yoki ko'rsatilayotgan shaxsga nisbatan adovat ruhida tarbiyalashdir. Tarbiyaning bu kabi ko'rinishida bola shaxsining menini inobatga olmaslik va buning natijasida Bolani doimiy stress keyinchalik esa dipressiya holatigacham olib borishim mumkin.

XULOSA

Oilaviy tarbiyaning yana bir shakli - ziddiyatlari tarbiya. Bunda oila a'zolarining har biri bitta bolaga nisbatan turlicha tarbiya uslublarini qo'llaydi, masalan, otasi o'ta qattiqqo'l, ona o'ta mehribon, yoki ota-ona bolaning xulqini juda nazorat qilib, mas'uliyat bilan uning axloqiy tarbiyasi bilan shug'ullalanadi, buvilari esa aksincha, uni erkalatib, izdan chiqib ketishini - "hali yosh, katta bo'lganda o'zi yaxshi bo'lib ketadi", qabilida ma'qullayveradi. Bunday beqaror tarbiya uslublarini E.Eydemiller, V.Yustitskiy, N.Leongardlar o'rganib, uning oqibatida bolada salbiy xarakter xususiyatlari, masalan, qaysarlik, obro'li shaxslarning tazyiqini noto'g'ri baholash kabilar shakllanishini isbotlaganlar. Ota-ona tarbiyadagi beqarorlikning oqibatlarini tasavvur qilsalarda, uning oldini olishni bilmaydi. Ko'pincha bu - bolalikka xos sifatlar ekanligi fikri ularni tinchlantiradi. Aksariyat ota-onalar bolasini yo'qotib qo'yish yoki uning ko'ngli qolishidan qo'rqib ham noto'g'ri tarbiya yo'llarini tutadi. Shuning uchun oilaviy tarbiya o'ta murakkab jarayon bo'lib, unda ota-onalar oldindan psixologik jihatdan tayyor bo'lishlari kerak.

Foydalilanigan adabiyotlar:

1. N.Xojaev va boshqalar. " Pedagogika asoslari " Toshkent, "TDIU" 2003yil.
2. Z.Mavlonova va boshqalar. " Pedagogika " Toshkent 2003 yil.
3. V.F. Matveyev. Meditsina psixologiyasi, etikasi va deontologiyasi asoslari. T., Abu Ali ibn Sino nomidagi nashriyot, 1991.
4. A.I. Shcherbakov. Yosh psixologiyasi va pedagogik psixologiyadan praktikum. T., "O'qituvchi", 1991.
5. H. Uzoqov, E. G'oziyev, A. Tojiyev. Oila etikasi va psixologiyasi. T., "O'qituvchi", 1992.
6. Sh. A. Murtalibov. Psixiatriyadan ma'lumotnomasi. T., 1993. 16. E. G'oziyev. Psixologiya. T., "O'qituvchi", 1994.
7. Sh. Sh. Shomansurov. Asab va ruhiy kasalliklar. T., 1995.